



O'ZBEKISTON HALOL TURIZM INFRATUZILMASINING TAHLILI

Saodat Azizova

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada 2018-2024-yillarda O'zbekistonda hududlar kesimida xizmat ko'rsatilgan tashrif buyuruvchilar soni, faoliyat yuritayotgan turoperatorlar soni o'zgarishlari o'rganilib, ilmiy asoslab berilgan. Buxoro viloyati misolida statistika ma'lumotlarga tayangan holda tahlil etilgan shu bilan birga, muallif tomonidan mavjud halol turizm infratuzilmasining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili bo'yicha xulosalari bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *halol turizm, ziyorat turizmi, turizmni rivojlantirish, xizmat ko'rsatish, ziyorat, milliy turizm, ziyoratchilar.*

Jahonda ziyorat turizmini rivojlantirishda halol standartlarini qo'llashning tashkiliy-iqtisodiy jihatlariga oid bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, halol turizm infratuzilmasini shakllantirish, musulmon sayyohlar ehtiyojlariga mos xizmatlar paketlarini kengaytirish, halol sertifikatlash tizimining xalqaro integratsiyasi va iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish, halol turizm klasterlarini shakllantirishning iqtisodiy asoslari, halol sertifikatlangan obyektlarning investitsion jozibadorligi, ziyoratchilar oqimini boshqarishda halol standartlarning ahamiyati, davlat-xususiy sheriklik asosida halol infratuzilmani rivojlantirish modellari kabi yo'nalishlardagi tadqiqotlar dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-iyuldagi "Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-338-son qarori doirasida turkiy dunyo doirasida "Tabarruk ziyorat" turizm konsepsiyasi tasdiqlangan. Konsepsiyaning amalga oshirilishi natijasida Turkiy davlatlar tashkilotiga a'zo davlatlardan 2022 — 2026-yillar davomida mamlakatimizga 5 milliondan ortiq sayyoh jalb etilib, 1,3 milliard AQSH dollariga yaqin turizm xizmatlari eksport qilishga erishiladi. Jumladan, hadisshunos olimlarimiz Imom al-Buxoriy, Muxammad ad-Dorimiy va Abu Iso at-Termiziy merosiga qiziquvchi 101 ming ziyoratchi, Abu Mansur al-Moturidiy merosiga qiziquvchi 26,2 ming ziyoratchi, Naqshbandiya tariqati izdoshlari bo'lgan 43,3 ming ziyoratchi, Pahlavon Mahmud merosi va pahlavoniya tariqati izdoshlari bo'lgan 3 ming ziyoratchi hamda yahudiylar dini merosiga talabgor 39,8 ming ziyoratchilar jalb etish rejalashtirilgan¹⁵.

O'zbekistonda so'nggi yillarda turizm eksporti hajmi 3,5 milliard dollarga yetgan, 2024-yilda xorijiy sayyohlar oqimi 10 million kishidan oshgan. Hozirda turizmning O'zbekiston iqtisodiyotdagi ulushini 2040 yilgacha bo'lgan muddatda 7 foizga, eksport hajmini esa 10

¹⁵ <https://www.lex.uz/ru/docs/-6137065?ONDATE=20.01.2024>



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



milliard dollarga yetkazish bo'yicha strategiya ishlab chiqilmoqda. Mazkur strategiya va turizmni rivojlantirish dasturlari doirasida, jumladan quyidagicha vazifalar belgilab olingan:

“turizm halqasi”ga kirgan yo'llarni ta'mirlash ishlarni boshlash;

kapsulali uylar qurish va jihozlashni ko'paytirish;

tog'li hududlarga piyoda chiqish (treking) uchun turfirmalarga sayyohlik marshruti ruxsatnomasini my.gov.uz portali orqali 10 kunda berishni joriy qilish;

Ko'rfaz davlatlari uchun joriy qilingan 10 kunlik vizasiz rejimni 30 kunga uzaytirish, Hindiston, Pokiston, Misr va eronlik sayyohlarga viza berishni yengillashtirish;

Milliy turizm yagona platformasini ishga tushirishni tezlashtirish: unda chipta olish va elektron viza berish imkoniyatlarini yaratish;

har oyning bitta shanba va yakshanbasini “oila va mehnat jamoasi bilan sayohatga chiqish” kuni deb e'lon qilish, ichki turizm targ'ibotini kengaytirishga yiliga 20 milliard so'm ajratish;

respublikaning barcha tarixiy obidalariga kirish imkonini beradigan “yagona turistik karta” joriy qilish va boshqalar¹⁶.

O'zbekiston turizmini 2040-yilgacha rivojlantirish strategiyasi Turizm qo'mitasi va Strategik islohotlar agentligi tomonidan «Reformatics» xalqaro konsalting kompaniyasi ishtirokida ishlab chiqilmoqda. Dastlabki bosqichda “Reformatics” vakillari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Samarqand va Xorazm viloyatlari, shuningdek, Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi kabi muhim hududlarini o'rganishdi. Kompaniya tomonidan davlat organlari bilan bir qator uchrashuvlar o'tkazib, brending, viza tartibi hamda turizm sohasidagi institutsional rivojlanish masalalari muhokama qilingan. Bundan tashqari, turizm sohasi xodimlari uchun zamonaviy marketing yondashuvlari bo'yicha amaliy seminar o'tkazilib, litsenziyalash, kadrlar tayyorlash va turistik xizmatlarini sertifikatlashga doir konsultatsiyalar o'tkazildi. Bu kabi tashabbuslar O'zbekiston turizmini 2040-yilgacha rivojlantirish strategiyasining bir qismiga aylanib, barcha toifadagi sayohatchilar uchun qulay, zamonaviy va ochiq muhit yaratishga xizmat qiladi¹⁷.

2024-yilda O'zbekiston Jahon Musulmon Sayohati Indeksi (JMSI)ning reytingda 100 ballik tizimdan umumiy 64 ball bilan 135 ta davlat orasidan 14-o'rinni egallab, yetakchi mamlakatlar qatoriga kiritildi. Jahon Iqtisodiy Forumi tomonidan nashr etilgan Turizmni rivojlantirish Indeksida O'zbekiston 7,8% o'sish su'rati bilan 193 mamlakat ichidan 78-o'rinni egallab, 2019-2024-yillar mobaynida turizm faol rivojlanayotgan davlatlar qatoriga qo'shildi. 2024-yilda mamlakatimizga 1,500 million nafar ziyoratchidan 1,300 nafari islomiy ziyorat maqsadida tashrif buyurib, shulardan 96 foizini qo'shni Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston Respublikalaridan yurtimizga kelgan mehmonlar tashkil qilgan¹⁸.

¹⁶ <https://kun.uz/news/2025/04/11/turizm-sohasida-yangi-vazifalar-belgilandi-avvalgi-topshiriqlar-ijrosi-qoniqarli-mi>

¹⁷ <https://asr.gov.uz/o%CA%BBzbekiston-turizmini-2040-yilgacha-rivojlantirish-strategiyasi-yo%CA%BBnalishlari-shakllantirilmogda/>

¹⁸ M.Kurbanova. Hududlarda ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlar (Buxoro viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro-2025.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Birgina Buxoro viloyati misolida oladigan bo'lsak, viloyatda jami 829 ta madaniy meros obyektlari (MMO) ro'yxatga olingan bo'lib, ularning 139 tasida sayyohlar tashrif buyurishi uchun barcha qulayliklar yaratib berilgan, 175 ta MMO esa ta'mirtalab holatda bo'lib, hozirgi kunda ularni restavratsiya, konservatsiya hamda renovatsiya qilish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. O'rganishlarimizga ko'ra, ayni kunlarda MMolarining 8 tasi mehmonxona, 14 tasi restoran sifatida qayta tiklangan hamda faoliyat yurimoqda. Ma'lumotlarga asosan jami 51 ta masjid, xonaqo, ansambl va madrasalar MMolari ro'yxatida ziyoratgoh sifatida qayd etilgan.

Ziyorat maqsadida tashrif buyuruvchi ichki hamda xalqaro turistlar ushbu muqaddas maskanlarni turli xastaliklardan shifo topish, mushkulliklardan qutulish, ruhiy taskin topish, farzand ko'rish, tavba qilish, ish hamda o'qishda yuqori muvaffaqiyatlarga erishish, nazr qilish, so'fiy ibodatlarini ado etish, zikrlar qilish, islom dini nuqtai nazaridan muqaddas sanalgan alohida kunlar va sanalarni nishonlash maqsadlarida ziyorat qilmoqdalar.

Nazariy va empirik tadqiqotlarimiz natijasida Buxoro va uning atrofida 156 ta yetib borish imkoniyati mavjud bo'lgan avliyolarning qabrlari va ziyoratgohlari mavjudligi, ayrimlari esa bugungi kunda nihoyatda qarovsiz holatda ekanligini aniqladik. E'tiborlisi, hozirda Buxoro viloyatida mavjud ziyorat turizm obyektlarining umumiy soni 51 tani tashkil etib, shulardan 46 tasi islomiy ziyorat turizm obyektlari sifatida e'tirof etiladi. 156 ta tabarruk maskandan 9 tasi ayol so'fiylar va avliyolarning muqaddas qadamjolari sanalib, bu orqali tashrif buyuruvchi musulmon ayol-qizlarning ziyoratlarini yanada rivojlantirish imkoniyatlarini beradi. Qayd etib o'tish lozim, viloyatda xalq tabobatiga asoslangan ziyorat turizmi va ilmiy-ma'rifiy ziyorat turizmi yo'nalishlarini ishlab chiqish va rivojlantirish imkoniyatlari yetarlicha mavjud.


2024-yilda Buxoro viloyatida xizmatlar eksporti umumiy hajmi 436,30 million AQSH dollarini, mahalliy sayyohlardan olingan tushum esa 802,1 milliard so'mni tashkil etib, ziyoratgohlarga 4,30 milliard so'm miqdorida tushum qilindi. Bu borada barcha ko'rsatkichlarda o'tgan 2023-yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 23-29 foizlik o'sish qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 27-iyundagi 264-son qarori bilan Buxoro viloyatida joylashgan madaniy meros obyektlarini ta'mirlash uchun respublika davlat byudjeti mablag'lari hisobidan 5 ta majmuada, jumladan, "ARK" qo'rg'oni, "S.Ayniy" teatr binosi, "Mir Arab" madrasasi, "Bahouddin Naqshband" me'moriy majmuasi hamda "Karvonsaroylar" majmuasi, obyektlari loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqish va ularda restavratsiya, ta'mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish uchun 58,3 mlrd so'mlik shartnomalar rasmiylashtirilgan hamda 23,2 mlrd. so'm avans va bajarilgan ishlar uchun mablag'lar moliyalashtirib berilgan¹⁹.

¹⁹O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi tomonidan 2023-yil amalga oshirilgan ishlar.
<https://madaniymeros.uz/opendata/100>



Turistik oqim tahliliga ko'ra, mamlakatimizga 2024-yilning yanvar-dekabr oylari davomida jami 7 957,2 ming nafar chet el fuqarolari xorijdan turistik maqsadlarda tashrif buyurgan bo'lib, natijalar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 20,1 % ga ko'paygani kuzatilgan²⁰ (1-rasmga qarang).



1-rasm. 2020-2024-yillarda xorijdan O'zbekistonga turistik maqsadlarda tashrif buyurgan chet el fuqarolari²¹

Xulosa qilib aytganda, halol turizm bozori – global iqtisodiy o'sishning yangi drayveri sifatida qaralib, 2023-yilda bozor hajmi 256,5 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan, 2035-yilga borib sa 548 mlrd dollardan oshishi prognoz qilinmoqda. Ushbu raqamlar halol turizmning nafaqat musulmon mamlakatlar, balki global iqtisodiyot uchun ham muhim sektor bo'lib borayotganligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://www.lex.uz/ru/docs/-6137065?ONDATE=20.01.2024>
2. <https://kun.uz/news/2025/04/11/turizm-sohasida-yangi-vazifalar-belgilandi-avvalgi-topshiriqlar-ijrosi-qoniqarlimi>
3. <https://asr.gov.uz/o%CA%BBzbekiston-turizmini-2040-yilgacha-rivojlantirish-strategiyasi-yo%CA%BBnalishlari-shakllantirilmoqda/>
4. M.Kurbanova. Hududlarda ziyorat turizmini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlari (Buxoro viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro-2025.
5. O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligi tomonidan 2023-yil amalga oshirilgan ishlar. <https://madaniymeros.uz/opendata/100>
6. <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-dekabr>
7. <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-dekabr> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

²⁰ <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-dekabr>

²¹ <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/53709-2024#yanvar-dekabr> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi